



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 NOYABR
№34**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
22-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-22**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-22**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 29 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Maxmudova Ozoda Nabiyevna HUYAYRA – TIRIKLIKNING IRSIY BIRLIGI.....	7
2. Каримов Ж.А. ТОШКЕНТ ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ЎСИМЛИКЛАРИ.....	9
3. Ibrahimova Sabohat Oybekovna, Narbayeva Shahnoza Davronbekovna SHIRINMIYANING DORIVOR HUSUSIYATLARI.....	11
4. Igamova Fotima Qadamovna BIOLOGIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH.....	13
5. Masharipova Gulasal Qo'chqorovna, Raximova Xurshida Ruzmetovna BIOTEXNOLOGIYA FANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI.....	15
6. Nurxanova Toshbibi Buxarovna BIOLOGIK TA'LIMNING ROLI.....	17
7. Qurbonboyeva Feruza Karimberganovna, Xaliqova Zaynabjon Yuriyevna EKOLOGIYA VA ATROF MUHITNING SOFLIGINI ASRASHDA FOYDALANILADIGAN INNOVATSIYALAR.....	19
8. Sabirova Nargiza Maxmudovna, Hayitboyeva Laylo Otanazarovna BIOLOGIYA FANINING YANGI SOHALARI	21
9. Sharipova Aziza Mustafayevna ZOOLOGIYA FANI PREDMETI, SISTEMATIKASI VA AHAMIYATI	23
10. Таджибаева Дилафруз Рахмонбердиевна БИОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ СРЕДЫ И БОЛЕЗНИ ЧЕЛОВЕКА.....	25
11. Таджибаева Дилафруз Рахмонбердиевна ЧЕЛОВЕКА И УРОВЕНЬ ЕГО ЗДОРОВЬЯ.	27



БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

HUJAYRA – TIRIKLIKNING IRSIY BIRLIGI

Maxmudova Ozoda Nabiyevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 34-maktab

Biologiya fani o'qituvchisi

Telefon: +998 99 953 37 45

Annotatsiya: Ushbu maqolada hujayra nazariyasi, kelib chiqishi, kashf qilinishi, ko'payish xususiyatlari, irsiy rivojlanishi, irsiy axborotni nasldan naslga o'tkazish DNK molekulasiining fundamental xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: hujayra, organism, irsiy rivojlanish, biologiya, tirik organism, xromosoma, xloroplast, molekula.

Hujayra – barcha organizmlarning tuzilishi, rivojlanishi va kelib chiqishidagi umumiylikni ko'rsatuvchi yirik biologik nazariyalaridan biri. Hujayra nazariyasiga binoan hujayra bakteriyalar, zamburug'lar, o'simliklar va hayvonlarning eng kichik tuzilish birligi. Hujayra nazariyasiga tiriklik olamining birligi va uning tarixiy rivojlanishi haqidagi evolyutsion tasavvurni tasdiqlaydi. Hujayra nazariyasi Ch. Darvinning evolyutsion ta'limoti va energiyaning o'zgarishi qonuni bilan bir qatorda XIX asrda tabiatshunoslik sohasida qilingan 3 buyuk kashfiyotlaridan biridir. Hujayralarning kashf etilishi va hujayra nazariyasining yaratilishi tarixan bir davrga to'g'ri kelmaydi. O'simlik hujayrasi tuzilishini dastlab tirik o'simlik poyasi va po'kaklardan tayyorlangan kesmada ingliz olimi Robert Guk o'zi yasagan mikroskop orqali kuzatgan va tadqiqot xulosalarini "Mikrografiya" nomli asarida bayon etgan. Ingliz botanigi N. Gryu hujayra qobig'i xuddi matoga o'xshash tolalardan tashkil topganligini taxmin qilgan.

Tirik organizmlar ko'payish, ya'ni o'ziga o'xshaganlarni yaratish xususiyatiga ega bo'lib, bu xususiyat ginetik axborotni nasldan naslga o'tkazish bilan bog'liq. Ko'payish xususiyatiga molekula darajada qaralsa, bu hodisa DNK molekulasiining ikki hissa ortishi bilan ifodalanadi. Hujayra darajasida bu xususiyat mitoxondriyalar va xloroplastlarning bo'linib ko'payishi, mitoz, meyoj jarayonlarida aks etadi.

Hujayra o'z irsiy axborotini barqaror va uzviy ravishda keyingi avlodga o'tkaza oladigan irsiy birlik bo'lib, avlodlarning bardavomligini ta'minlaydi. Irsiyatning moddiy asosi bo'lgan DNK molekulasi o'z-o'zini ko'paytirish xususiyatiga ega, lekin bu jarayon faqat tirik hujayradagina amalga oshadi.

Irsiy axborotni nasldan naslga o'tkazish DNK molekulasiining fundamental xususiyati – reduplikatsiyasi bilan bog'liq. DNK molekulasiining ikki hissa ortishi reduplikatsiya deyiladi. DNK molekulasiining dastlabki qo'sh zanjiri maxsus fermentlar yordamida ikkita alohida zanjirlarga ajraladi. DNKning bir zanjiri yangi zanjirning sintezi uchun matrisa bo'lib xizmat qiladi. DNK – polimeraza fermenti ishtirokida hujayradagi erkin nukleotidlardan foydalanib, ATF energiyasi hisobiga DNKning yangi komplementar zanjiri sintezlanadi. Bu jarayon hujayra sikli interfaza bosqichining sintez davrida sodir bo'ladi.

Organizmlar hayotining asosiy sharti, bu – hujayralar oqsil molekulasiining sintezlay olish qobiliyatidir. Har bir tur boshqa turlardan farqlanuvchi, unikal oqsillar to'plamiga ega. Turli organizmlarda bir xil funksiyani bajaradigan oqsillar aminokislotalar soni va izchilligi bilan farqlanadi. Muhim hayotiy funksiyalarni bajaruvchi oqsillar barcha organizmlarda o'xshash bo'ladi.

Tashqi muhitdan ovqat tarkibida qabul qilingan oqsillar bevosita shu organizmning hazm qilish organlarida aminokislotalarga parchalanadi. Bu aminokislotalar ichakdan qonga so'rilib,



hujayralarga yetib boradi. Genetik axborot asosida har bir hujayra o'ziga xos bo'lgan oqsillarni sintezlaydi. Oqsillarning faoliyat ko'rsatish muddati cheklangan bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng ular parchalanadi. Ularning o'rniga to'xtovsiz yangi oqsillar hosil bo'ladi.

Tirik organizmlarning irsiy axborotni saqlash va keyingi avlodga o'tkazishdek eng muhim xususiyati xromosomalaridagi DNKga bog'liq. Bir bo'linishdan ikkinchi bo'linishgacha bo'lgan davrda har bir xromosoma bitta DNKdan iborat bo'ladi. Yadroning bo'linishidan avval reduplikatsiya tufayli DNK molekulalari soni ikki hissa ortadi. Natijada har bir xromosoma ikkita xromatidadan iborat bo'ladi. Yadro bo'linishidan avval xromosomalar yorug'lik mikroskopida aniq ko'rinmaydigan, lekin maxsus bo'yoqlar yordamida bo'yaladigan uzun va ingichka tuzilmalar holida bo'lib, bu tuzilmalar xromatin deb ataladi. Spirallanish darajasiga ko'ra xromatinda ikki xil qismlarni farqlash mumkin.

Tirik organizmlar har bir turining hujayrasida xromosomalar soni hujayralarida o'zgarmas, ya'ni bir xil bo'ladi. Bu holat xromosomalar sonining doimiylik qoidasi hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. G'afurov, A. Abdukarimov. Biologiya. 10-sinf darsligi. Toshkent. 2017-y
2. K. N. Nishonboyev, J. H. Xamidov. Tibbiy biologiya va irsiyatdan qo'llanma. Toshkent 2005-yil.



ТОШКЕНТ ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ЎСИМЛИКЛАРИ.

Каримов Ж.А.

Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси Ботаника
Институту мутахассиси.
Телефон: +998(93)573-33-29

Аннотация. Тошкент воҳасининг қадимги ўсимликлари *Linaceae* DC. ex *Perleb* , *Araceae* Juss , *Malvaceae* Juss , *Boraginaceae*, *Rosales*, *Spirayeoideae*, *Pomoideae* кабилардир. Мазкур ўсимликлар инсон ва табиат учун жуда муҳим бўлиб, Тошкент воҳасининг ажралмас намуналаридан бири ҳисобланади.

Калит сўзлар: *Linaceae* DC. ex *Perleb* , *Araceae* Juss , *Malvaceae* Juss , *Boraginaceae*, *Rosales*, *Spirayeoideae*, *Pomoideae*.

Ўзбекистонда кейинги икки ўн йилликларда флористика соҳасида олиб борилаётган изланишларда рақамли технологиялардан кенг фойдаланилмоқда. Мамлакатимиз ўсимлик бойликлари орасида озиқ-овқат , ем-ҳашак, каучук, бўёқ моддалари, берадиган, витаминли, эфирли, шунингдек, доривор жуда қимматли ўсимликлар бор. Инсон ҳаётини бутунлай деярли ўсимликка боғлиқ дейиш мумкин. Чунки инсонлар учун зарур озиқ-овқат , ёқилғи, кийим-бош, қурилиш материаллари, табиий бўёқ, доривор ҳомашёси, ниҳоят саноатининг кўп соҳалари учун зарур бўладиган ҳомашёларни фақат ўсимликлар беради.

Айтиш мумкинки, Тошкент воҳасининг қадимги ўсимликлари ҳақида бир қанча маълумотларга мавжуд. Маълумки Тошкент воҳаси нафақат тупроқ иқлим шароитлари, балки ўсимликлар дунёси билан бошқалардан ажралиб туради.

Тошкент воҳаси геоботаник жиҳатдан эфэмэр ва эфемероид ўсимликлар тавсифланадиган ҳудуд ҳисобланади. Бу минтақага ҳос бўлган ўсимликлар *Linaceae* DC. ex *Perleb* , *Araceae* Juss , *Malvaceae* Juss , *Boraginaceae*, *Rosales*, *Spirayeoideae*, *Pomoideae* кабилардир. Тошкент воҳасининг ўсимлик қоплами асосини маданий ва манзарали ўсимликлар ташкил этади. Манзарали дарахт ва бута ўсимликларидан 200 хилга яқини маълум. Мазкур ўсимликлар инсон ва табиат учун жуда муҳим бўлиб, Тошкент воҳасининг ажралмас намуналаридан бири ҳисобланади.

Linaceae DC. ex *Perleb*- икки уруғ паллалилар ёки магнолиясимонлар синфига мансуб бир йиллик ўсимликлар оиласи. Ер юзида 6 туркумга мансуб 250 , Ўзбекистонда 200 тури ўсади. Гуллари тўғри , икки жинсли. Гултож барглари айри, баъзан учки қисми тутушган. Тожбарглари, косабарглари, ўруғчиси, чангчилари 4-5 тадан. Меваси думалоқ кўсакча. Барглари яқка жойлашган. Поясининг узунлиги, гулларининг катта кичиклиги ва ранги, тукли ва туксиз бўлиши, тарқалиши билин бир-биридан фарқ қилади.

Araceae Juss.- у 100 га яқин авлодни ва 3000 дан ортиқ турни, шу жумладан ёпиқ шароитда етиштиришда жуда кўп учрайдиган ўсимликларни ўз ичига олади. Улар монокотлар, аммо улар жуда ривожланган барглари бор, мураккаб томирлар билан, бу гуруҳда жуда атипик нарса. Унинг гуллаши, гарчи у гулга ўхшаб кўринсада, аслида гулзор деб аталади. Уларнинг аксарияти Американинг тропик минтақаларидан келади, аммо уларни илиқ ҳудудларда ва эски дунёда топиш мумкин.

Malvaceae Juss- икки паллалиларидан айритожилиларга мансуб ўт ва буталар оиласи. Барглари панжасимон ўйма. Гуллари актиноморф, икки жинсли, йирик, оқ, сариқ, ёки пушти. Косачаси икки қават. Чангчилари жуда кўп, ипчалари туташ. Уруғчиси битта. Ер юзида 80 яқин туркуми ва 1500 тури бор. Тошкент воҳасида 6 туркуми ва 17 тури ўсади. Уларнинг кўпидан тола олинади. Чангчилари кўп, улар ўзларинг ипи билан туташиб, найча бўлиб туради. Уруғчилари учта ёки ундан ҳам кўпроқ мевача баргдан иборат.

Boraginaceae- бу оилага асосан ўт ўсимликлар ва камдан кам бута ҳамда дарахт ўсимликлар киради. Поялари қиррали, барглари бутун, навбат билан, баъзан қарама-қарши жойлашади. Поя ва барглари каттиқ тукчалар билан қопланган. Тўпгуллари кўшалок гажжаклардан иборат. Гуллари 5 бўлакчали тўғри бўлиб, баъзан нотўғрилари ҳам учрайди. Гултожилари найчасимон, кўнғирсимон ёки бошоққа ўхшаш бўлиб. 5 бўлакчи ва 5 тишлидир. Чангчиси 5 та улар гултож найчасига бирикади. Уруғчилари 1-2 мевачаси баргдан тузилган.



Rosales- аттиргулдошлар оиласига ўт ўсимликлар, бута ва дарахтлар кириб, уларнинг 115 авлоди ва 3200 тури маълум. Бу ўсимликлар асосан Шимолий ярим шарнинг мўтадил иқлими кенгликларида тарқалган. Барглари оддий ва мураккаб бўлиб навбат билан жойлашади. Гуллари тўғри доиравий, қўш гулқўрғонли, икки жинсли бўлади ва баъзан бир жинслилари ҳам учрайди. Улар тўпгул ҳосил қилади ёки якка якка туради. Косачаси беш бўлакчали косачабарглари сони икки баробар кўпайганида ост косача ҳосил бўлади. Гултожи барги 4-5 та.

Spiraeoideae-бу кенжа оиланинг вакиллари оддий баргли буталардан иборат. Гули майда бўлиб, тўпгул, шингил ёки қалқонгулларга тўпланган, тугунчаси устки. Гулўрни ясси ёки бир оз ботик. Косачаси 5 та косача баргдан, гултожиси 5 тожибаргдан иборат. Чангчилари кўп, улар доира шаклида жойлашган. Уруғчиси 5 та мевачабаргдан тузилган.

Romoideae-бу кенжа оиланинг вакиллари дарахт ва баъзан бута ўсимликлардир. Уларнинг барглари кўпинча оддий, баъзан мураккаб тушиб кетадиган, ёнбаргли, гулкосаси ҳам гултожиси ҳам 5 тадан. Чангчиси 20 тадан ортиқ. Мевабарглари 2-5 та. Тугунчаси остки. Гул ўрнида ботик мевабарглари гулнинг этли ўзаги билан қўшилиб ўсади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Тошкент воҳаси нафақат тупроқ иқлим шароитлари, балки ўсимликлар дунёси билан бошқалардан ажралиб туради. Мазкур ўсимликлар инсон ва табиат учун жуда муҳим бўлиб, Тошкент воҳасининг ажралмас намуналаридан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Л. И. Курсанов, Н. А. Комарницкий, К. М. Мейер ва бошқалар. Ботаника 2 том. “Ўрта ва олий мактаб” . 1963-й.
2. В. А. Вуригин, Ф. Х. Жонгузаров, Ж. К. Саидов ва бошқалар. Ботаника ва ўсимликлар физиологияси. “Ўқитувчи” 1972-й.
3. В. Г. Хржановский. Курс общий ботаники. Част 2 м. Изво. “Высшая школа” 1982-г.
4. И. Хамдамов, И. Шукурруллаев, Е. Э. Тарасова ва бошқалар. Ботаника асослари . “Мехнат” . 1990-й.
5. Г.П. Яковлев, В. А. Челомбитко. Ботаника. М. Из-во “Высшая школа”. 1990-г.
6. Х. М. Маҳкамова. Ботаника. “Ўқитувчи”. 1995-й.



SHIRINMIYANING DORIVOR HUSUSIYATLARI

Ibrahimova Sabohat Oybekovna

Yangiariq tumani 38-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 512 74 64

sabohat.oybekovna_7464@inbox.uz

Narbayeva Shahnoza Davronbekovna

Shovot tumani 38-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (90) 738 13 38

shaxnoza_3838@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola shirinmiyaning dorivor hususiyatlari va undan tabobatda foydalanish haqida.

Kalit so'zlar: Shirinmiya, fitomeliorativ, yalong'och va ural shirinmiyasidir, qizilmiya o'simligi, fotosintez mahsuldorligi.

Shirinmiya o'simligini tuzlar miqdori o'rtacha bo'lgan (0,002) hamda sho'rlanmagan tuproqlarda fitomeliorativ ekinlardan birini qalamchlari orqali 3-xil ko'chat qalinligida o'stirish, azot o'g'itlari solinganda ildizlari ko'karib ketishini, o'simlikni o'sish tezligi, fotosintez mahsuldorligini aniqlash orqali qancha muddatlarda (1, 2, 3, 4) ildiz massasini yuqori darajada tuplanishini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Shuningdek, Farg'ona viloyati sharoitida qizilmiya o'simligi bilan birorta yo'riqnoma, tavsiya yo'qligi, bu yo'lda tadqiqot ishlari olib borilmagani ham achinarli holat bo'lib, ko'rinishini o'zi oliy ta'lim yo'nalishidagi o'qituvchilar oldiga bu sohadagi ishlarni boshlash zarurligi kelib chiqdi.

Shirinmiya ko'p yillik o'simlik bo'lib, iyun–avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust–sentyabr oylarida pishib yetiladi. Urug'idan vegetativ tarzda ko'payadi. Joy tanlamay, cho'lli hududlarda, sho'rxok tuproqda ham o'sish qobiliyatiga ega. O'zbekistonning barcha hududlarida, O'rta Rossiyada, Shimoliy – sharqiy Kavkazda, Yevropaning janubi – sharqida keng tarqalgan. Eng ko'p tarqalgan turlari bu yalong'och va ural shirinmiyasidir.

Shirinmiya xalq tabobatida qamrab oluvchi, balg'am ko'chiruvchi va ich yurg'uzuvchi xususiyatlari bilan mashhur. Uning balg'am ko'chiruvchi xususiyati o'simlik tomiridagi mavjud glitsirrizin moddasiga bog'liq. U yuqori nafas olish yo'llarining sekretor funksiyasini kuchaytiradi va bronxlar hamda traxeyalardagi kipriksimon epiteliylar faolligini oshiradi. O'simlikdagi saponinlar organizmning boshqa a'zolariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, uning tarkibidagi boshqa moddalar buyrak faoliyatini yaxshilab, qondagi xolestirin quyqalarining hosil bo'lishini oldini olish va yo'qotish xususiyatiga egadir.

Shirinmiyaning xalq tabobatida qo'llanilishi qadimgi eramizdan avvalgi uchinchi asrda bitilgan Xitoyning "O'simliklar haqida kitob" asarida hamkeltirilgan bo'lib, Chin yurtining tabiblari uni birinchi turdagi dorivor o'simliklar sirasiga kiritishgan hamda barcha damlama va surtmalarga qo'shishgan. Chunki shirinmiya dorilar ta'sirini bir necha barobar kuchaytiribgina qolmay, inson tanasiga tashqaridan kiritilgan zaharlar kuchini kesuvchi vosita bo'lib ham xizmat qilgan. Yaponiyada shirinmiya antioksidant sifatida, Misrda oziq–ovqat mahsulotlariga o'zining bakteritsid va fungitsid xususiyatlariga ko'ra qadrlanadi.

Koreys xalq tabobatida esa shirinmiya oshqozon va o'n ikki barmoqdi ichak yarasini, ekssudativ plevritni, o'tkir bronxit, shamollashni, revmatik artrit, quruq yo'tal va tomoq og'rig'i, o'tkir va surunkali tonzillit, jigar kasalliklarini davolashda, ovqatdan zaharlanishning oldini olishda ishlatiladi.

Uy sharoitida damlama tayyorlash uchun:

1 retsept. 10 g. shirinmiya tomiriga 200 ml. Qaynab turgan suv qo'yib, yopiq idishda 20 daqiqa bug'latadi. So'ng 1–2 soat damlanib, dokadan suziladi. Damlama 1 osh qoshiqdan kuniga 4 – 5 marotaba ichiladi.

2 retsept. 1 osh qoshiq maydalangan shirinmiya tomiri 1 stakan qaynoq suvda damlanib, kuniga 4 – 5 marotaba ¼ - 1/3 stakandan balg'am ko'chiruvchi, yengil ich suruvchi va yallig'lanishning



oldini oluvchi vosita sifatida ichiladi. Albatta damlama qabul qilishdan oldin o'z shifokorlaringiz bilan maslahatlashishingiz zarur. Chunki shirinmiya preparatlarini uzoq vaqt, nazoratsiz, tartibsiz qabul qilish qon bosimining ko'tarilishiga, tanadagi suyuqliklarning turib qolishiga, soch to'kilishi va boshqa organizm faoliyatining buzilishlariga olib kelishi mumkinligini unutmang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абубакиров А.К., Ясин В.К. Исследование среднеазиатских видов *Glycyzrhiza* L на содержание глитсирризиновой кислоты. Узбек химической журнал. 1959. №5, 81-86 стр
2. Хо'jaev K. Dorivor *Astragalus suversianus* L. O'simligining bioekologiyasi. Ekologiyaning hozirgi zamon muammolari va ularning echimi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Farg'ona. 2017. 139-bet
3. Холматов Х.Х. Дикорастущие лекарственных растения Узбекистана. Ташкент. 1984. 277 стр.



BIOLOGIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Igamova Fotima Qadamovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

8-son AFChO'IMI biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida o'quvchilarni fanga qiziqtirish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish haqida tushunchalar berilgan va didaktik o'yin mashqlaridan namunalari berilgan.

Kalit so'zlar: fikr, biologiya, bilim, didaktik o'yin, ko'nikma, malaka, qobiliyat, texnologiya, kim chaqqon, olimlar, muxbirlar, fermerlar, o'simliklar, mevalar.

Bugungi kunda ta'limning bosh maqsadi har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ro'y beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy jarayonlariga moslashgan, ta'lim va kasb hunar dasturlarini puxta ongli ravishda o'zlashtirgan, jamiyat va davlat, oila oldidagi o'z fuqoroligini his etadigan fuqoralarni tarbiyalash hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarga bilim berish jarayonida ularni fikrlashga, mustaqil izlanishga yo'naltiriladigan har hil usullar va o'qitish vositasidan samarali foydalanish muhimligini keltirib chiqaradi.

Botanikani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish maqsadida darslarda o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida darslarni tashkil etish o'quvchilarga biologik qonuniyatlar, hodisalar va hayotiy jaraonlarni o'rganish faoliyatini intensivlantiruvchi va rivojlantiruvchi usullardan biridir. O'yinlar o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlardan chiqarib olish qobiliyatini, o'rtoqlari bilan muloqotga kirisha olish xususiyatlarini oshiradi, tez javob topish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'yinlar davomida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ijobiy his hayajon tuyg'usi ularni charchashdan asraydi. O'yin darslari o'qitishning faol shakllaridan bo'lib bunday darslar o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini hamda o'quvchilarning faol bilish jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlarini ko'zda tutadi.

O'yin darsning asosiy maqsadi o'quvchilarning o'quv jarayoniga qiziqishlarni oshirish va bu bilan o'qish samaradorligini oshirishdir. Tashqaridan qaraganda o'yin yengil, betashvish ko'rinishda, aslida boladan maksimum energiya berilishini aql, sabr toqat, mustaqillik kabi jihatlarni ishga solishni talab etadi. O'yin jarayoni biroz shovqin va tartibsizlik bilan kechgani uchun o'qituvchilar ko'pincha jim o'tirib tinglaydigan, shovqinsiz o'tadigan an'anaviy darslarni maqul ko'radi.

O'qituvchi uchun o'yin darslari bir tomondan o'quvchini yaxshiroq bilish va tushinish, o'quvchilarni individual xususiyatni baholash, o'zaro munosabatlarda bo'ladigan muammolarni hal etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan ishga ijodiy yondashuv, pedagogik mahoratini ishga solish, shaxsiy fikrlarni amalga oshirish imkonini beradi. O'quvchilar o'yin mohiyatini tushinib yetishlari, o'qituvchi esa o'yin faoliyatini boshqara olishi kerak. O'qituvchining asosiy vazifasi o'yin jarayonini, o'quvchilarning tashabbuskorligini oshirish va buni qo'llashda kerakli yordamni berishdan iborat. Quyida biologiya darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlarni ko'rib o'tamiz.

"Kim chaqqon" o'yini. 1. O'quvchilarga tez va xatosiz ravishda "O", "A", "I" yoki boshqa harflari bor bo'lgan o'simlik nomlarini yozish topshiriladi. Masalan: Terak, atirgul, andiz, nastarin, olma, ebalak va hokazo. Belgilangan vaqt ichida eng ko'p o'simlik nomini yozgan o'quvchiga rag'bat beriladi. 2. O'quvchilarga hayvon nomlari bilan bog'liq o'simlik nomlarini yozish topshiriladi. Masalan: itsigak, kanakunjut, qo'ytikan, maymunjon, otquloq, qo'ziqorin, quyonsuyak va hokazo. Belgilangan vaqt ichida eng ko'p o'simlikni yozgan o'quvchilar g'olib hisoblanadi.

Didaktik o'yin texnologiyasidan konferensiya darslari "Mevalarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati" mavzusida qo'llash mumkin. O'qituvchi mazkur darsni o'tkazishdan bir hafta avval o'quvchilarni seleksiya sohasida ishlaydigan "olimlar", "fermerlar", "muxbirlar" guruhiga ajratiladi va har bir guruh bilan alohida tayorgarlik ishlari olib boriladi. O'quvchilarga tegishli qo'shimcha adabiyotlari tavsiya etiladi va o'quvchilar guruhi uchun o'quv topshiriqlari tuzadi. Seleksiya sohasida ishlayotgan "olimlar" guruhi uchun o'quv topshiriqlari quyidagicha bo'lishi mumkin:



1. Meva daraxtlarning inson hayotidagi ahamiyati.
2. Poliz ekinlarining inson hayotidagi ahamiyati.
3. Dukkakli ekinlarning ahamiyati.
4. Rezavor mevalarning inson hayotidagi ahamiyati.
5. Texnika ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
6. Mevalari dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar.

“Olimlar” maqomini olgan o'quvchilar topshiriqni o'zaro bo'lib oladilar, qo'shimcha o'quv adabiyotlardan foydalanib, 3-5 daqiqali ma'ruza tayorlaydilar. Ma'ruzalarni rasmlar va ko'rgazmali qurollar asosida lo'nda va mantiqiy ketma ketlikda bayon etishni o'rganadilar.

“Fermerlar” maqomini olgan o'quvchilar qayd etilgan mavzular bo'yicha o'simliklardan olinadigan maxsulotlarni aniqlaydilar va ko'rgazmasini tashkil etadilar. O'qituvchi bu guruh bilan birgalikda o'simliklardan olinadigan mahsulotlarning diagrammasini va ko'rgazmasini tashkil qiladi.

“Fermerlar” mevalarning inson hayotidagi ahamiyatini savol asosida qayd etadilar.

1. Oziq –ovqat sifatida foydalaniladigan mevalar.
2. Dori darmon sifatida foydalaniladigan mevalar.
3. Ziravor sifatida foydalaniladiganlar mevalar.
4. Zeb-ziynat sifatida foydalaniladigan mevalar.

“Muxbirlar” o'z daftarlariga “olimlar” “fermerlar” axborotini tinglab o'zlarini qiziqtirgan savollari (avvaldan tayorlangan) bilan murojat qiladilar. Matbuot uchun maqola tayorlaydilar. Eng yaxshi maqola sinfda o'qib eshittiriladi va muhokama etiladi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.O.Tolipova, M.T.Umaraliyeva. Botanika darsligi 6-sinf.
2. O'.Pratov va boshq. Biologiya (Botanika) 6-sinf uchun darslik.
3. Umumta'lim maktablarining biologiya darsliklari.



BIOTEKNOLOGIYA FANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

Masharipova Gulasal Qo'chqorovna

Hazorasp tumani 20-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 790 29 17

mg_qo'chqorovna2020@inbox.uz

Raximova Xurshida Ruzmetovna

Bog'ot tumani 10-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (94) 863 02 71

raximova_xr@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada biotexnologiyaning tadqiqot ob'ektlari, ilmiy-tadqiqot metodlari va erishilgan natijalar hamda biotexnologiya faning rivojlanish istiqbollari va muammolari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: azotfiksatsiya, antigen, genom, insulin, interferonlar, kapsid.

“Biotexnologiya” terminini 1917 yilda venger injeneri Karl Eryoki kiritgan. Uning ta'rifiga ko'ra “biotexnologiya – bu tirik organizmlar yordamida xom ashyodan u yoki bu mahsulot olinadigan ishlarning barcha turidir”. Biotexnologiya yoki biologik jarayonlar texnologiyasi - biologik agentlar yoki ularning majmualaridan (mikroorganizmlar, o'simliklar va hayvon hujayralari, ularning komponentlaridan) kerakli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida sanoatda foydalanish degan ma'noni beradi.

Bugunga kelib, zamonaviy biotexnologik usullar gen muhandisligi yordamida farmatsevtika uchun interferonlar, insulin, somatotropin, gepatitga qarshi vaksina, fermentlar, klinik tadqiqotlar uchun diagnostik ashyolar (narkomaniya, gepatit va boshqa bir qator yuqumli kasalliklarni aniqlash uchun test tizimlar, biokimyoviy tekshirishlar uchun reaktivlar, egiluvchan biologik plastmassalar, antibiotiklar, bioaralashmali boshqa ko'plab maxsulotlar) ishlab chiqariladi.

Mikrob biotexnologiyasining rivojlanish tarixi ko'p ma'noda XX-asrning ikkinchi yarmi bilan bog'liq. O'tgan asrning 40-yillarida mikroorganizmlardan penitsillin olish texnologiyasining yaratilishi bu fan rivojiga ijobiy burulish yasadi. Penitsillin ishlab chiqarilishining yo'lga qo'yilishi va muvaffaqiyat bilan ishlatilishida keyingi avlod antibiotiklarini qidirib topish, ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va qo'llash usullari ustida ishlarni tashkil qilish zarurligini oldindan belgilab qo'ydi. Bugungi kunda yuzdan ortiqroq antibiotiklar

ishlab-chiqarish texnologiyalari hayotga tadbiiq qilingan.

Antibiotiklar ishlab-chiqarish bilan bir qatorda aminokislotalar, fermentlar, garmonlar va boshqa fiziologik faol birikmalar tayyorlash texnologiyalari ham yaratila boshlandi. Bugungi kunda meditsina va qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan aminokislotalar (ayniqsa organizmda sintez bo'lmaydigan aminokislotalar), fermentlar va boshqa fiziologik faol moddalar ishlab chiqarish texnologiyalari yo'lga qo'yilgan.

Oxirgi 20-30 yilda, ayniqsa mikrob oqsilini olish texnologiyasi rivojlanib ketdi. Qishloq xo'jaligi uchun o'ta zarur bo'lgan bu maxsulotni ishlab chiqarish bilan bir qatorda undan unumli va oqilona foydalanish yo'llari amalga oshirilmoqda. Oqsil ishlab chiqarishda har xil chiqindilaridan (zardob, go'sht qoldiqlari) va parafindan foydalanish mumkinligi tasdiqlangan. Hozirgi paytda buning uchun metan va metanoldan foydalanish mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan. Keyingi vaqtda mikrob biotexnologiyasining rivojlanishi immobillashgan (maxsus sorbentlarga bog'langan) fermentlar va mikroorganizmlar tayyorlash texnologiyalarini yaratilishi bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Immobilizatsiya qilingan fermentlarni har xil jarayonlarda ishlatilishi (fermentlar muxandisligi) bu biokatalizatorlardan foydalanishni yanada faollashtirib yubordi. Endilikda fermentlar bir marotaba emas, bir necha marotaba (hatto bir necha oylab) ishlatiladigan bo'lib qoldi.

Mikroorganizmlar faoliyati va imkoniyatidan foydalanish, ularni hosildor turlarini (shtammalarini) yaratish bilan bog'liq. Bunday vazifani mikrobiologlar bilan uzviy hamkorlikda genetika va gen muxandisligi usullaridan xabardor bo'lgan boshqa mo'taxassislar amalga oshiradilar. Mikrob preparatlarini ishlab chiqarishni faollashtirishning yana bir yo'li ikki yoki undan ortiq bo'lgan, biri-ikkinchisini faolligini oshirib beraoladigan (simbiozda ishlaydigan) mikroorganizmlar assotsiatsiyasidan foydalanishdir. Bu yo'l hozirgi vaqtda fermentlar, antibiotiklar, vitaminlar va



metan gazi olishda hamda oqova suvlarni tozalash jarayonlarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Mikrobyotexnologiyasining asosini mikroby faoliyati tashkil qilar ekan, faol mikroorganizmlarni saqlash, (eng avvalo faglardan va tashqi muhit ta'siridan) sharoitlarini aniqlash eng muhim vazifalardan biridir. Yuqorida aytib o'tilganlar, mikrobyotexnologiyasining rivojlanishi bir qator o'ta muhim muommolarini yechish bilan bog'liq bo'ladi va bu muommolarni yechishda nafaqat mikrobiologlar, biokimyogarlar, biotexnologlar, balki muxandislar va texnologlar ishtirok etishlari zarur bo'ladi.

Bu esa, mikrobyotexnologiyasi fanini yaxshi o'zlashtirib olish uchun yuqorida eslab o'tilgan fanlardan xabardor bo'lmoqlikni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. By Roland W. Scholz Environmental Literacy in Science and Society: From Knowledge to Decisions. New York, USA, 2011; Cambridge University Angliyskiy.

1. Escaler, Margarita, Paul Teng & Mely Caballero-Anthony. 2010. Ensuring Urban Food Security in ASEAN: Summary of the Findings of the Food Security Expert Group Meeting held in Singapore 4–5 August, 2010. Food Security

2. Prahalad, C. K. 2010. The fortune at the bottom of the Pyramid. Wharton School



BIOLOGIK TA'LIMNING ROLI

Nurxanova Toshbibi Buxarovna,
Surxondaryo viloyati Denov tumani
40-maktab biologiya fani o'qituvchisi,
+998903739315 nurxanova40@gmail.com

Annotatsiya: Biologiya o'qitish metodikasi fan sifatida mazkur fan bilan bog'liq o'quvchilarning bilim olish, tarbiyalanish va rivojlanishini nazariy va amaliy jihatidan tadqiq qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Kalit so'zlar: Metodika, o'quv fani, abstrakt tafakkur, innovatsiya, bionika, fiziologiya, sitologiya, metodika.

Biologiya o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishni maqsad qilib qo'yadi.

Biologiya o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarga biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Biologiya o'qitish metodikasi fan sifatida. Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo'lib, u narsa va xodisalar to'g'risida bilimlar to'plashga yo'nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa xodisalar to'g'risida to'liq va chuqur bilim olishga qaratilgan. *Fanning asosiy funksiyasi tadqiqot hisoblanadi.*

Biologiya o'qitish metodikasi pedagogik fanlar tarkibiga kiradi. Shu sababli uning oldida turgan maqsad va vazifalar ham umumpedagogik maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

Biologiya o'qitishning hozirgi davrda samarali bo'lishi o'quvchilarga o'quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan biologik bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi.

Fan sifatida biologiya o'qitish metodikasining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning o'qitish va tarbiyalash, kamolga yetkazishda o'quv fanining o'rnini aniqlash;
2. Maktab o'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va uni maktab amaliyotiga tadbiq yetish;
3. O'quvchilarning yoshiga mos ravishda o'quv fanlarining mazmuni, undagi mavzularning o'rganish izchilligini belgilash;
4. Biologik o'quv fanlarining o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, o'qitish usullarini, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish;
5. O'qitish jarayonida qo'llash uchun zarur jihozlarni aniqlash.
6. Biologiya xonasi tirik burchak, tajriba yer maydoning tashkil etish, tabiiy, tasviriy, audio, video vositalarni belgilash.
